O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI AKADEMIK LITSEYI

# TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSION G‘OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH ZAMONAVIY TA’LIMNING BOSH STRATEGIYASI

**Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**

**MATERIALLARI**

**I-II SHO‘BALAR**







**2025, 26.04**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
AKADEMIK LITSEYI

# TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSION G‘OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH — ZAMONAVIY TA’LIMNING BOSH STRATEGIYASI

**Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**
**M A T E R I A L L A R I**
**2025-yil, 26-aprel**

---

# IMPLEMENTATION OF INNOVATIVE IDEAS AND TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS — THE MAIN STRATEGY OF MODERN EDUCATION

**P R O C E E D I N G S**
**of the Republican Scientific and Practical Conference**
**April 26, 2025**

---

# ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ИДЕЙ И ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС — ОСНОВНАЯ СТРАТЕГИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**М А Т Е Р И А Л Ы**
**Республиканской научно-практической конференции**
**26 апреля 2025 года**

**BUXORO - 2025**

Mazkur to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200-son qarori 9-bandiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 19-fevraldagi 70-sonli buyrug‘iga asosan Buxoro davlat texnika universiteti akademik litseyida 2025-yil 26-aprel kuni “Ta’lim jarayonida innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni joriy qilish - zamonaviy ta’limning bosh strategiyasi” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan iborat.

Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardirlar.

## TASHKILIY QO‘MITA

| | |
|---|---|
| **S.G‘. Siddiqova** | Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori, p.f.f.d. (PhD) |
| **A. Naimov** | O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro viloyati hududiy boshqarma boshlig‘i |
| **A.B. Nizomov** | Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor, i.d.f., professor |
| **E.Z. Halimov** | Buxoro muhandislik-texnologiya instituti akademik litseyi ijrochi direktori, p.f.n., dotsent |

M – (massive) массовый - ommaviy. Ommaviy ochiq onlayn kurs (OOOK) larning muhim afzalligi bu tinglovchilar sonida cheklovlar yo‘qligi hisoblanadi. Barcha hoxlovchilar taqdim qilingan kurslarni o‘qishi mumkin bo‘ladi.

O – (open) открытый - ochiq. Bu so‘zning ma’nosi taqdim qilingan materiallarga tekinga bog‘lanish imkoniyati mavjudligini anglatadi. Biroq, endi ko‘plab MOOK mavjud bo‘lib, qaysiki ular pulli o‘qishni taklif qiladi. Qoidaga ko‘ra dasturlash bo‘yicha o‘qish pullik hisoblanadi. Biroq baribir tekin asosdagi kurslar etakchiligicha qolmoqda.

O – (online) онлайн - onlayn. Ulangan holatda joylashganligini anglatadi.

K – (course) курс - kurs. Bu ham oliy ta’lim muassasasi kursi singari bo‘lib, ma’lum bir belgilangan predmetni qamrab oladi. Faqat nima uchun yaratilgan va nimaga tekin ekanligi tushunarsiz xolos. Kommunikatsiyaning yangi texnologiyalari rivojlanishi bilan, onlayn o‘qitish g‘oyasi ko‘plab odamlar aqlini bezovta qila boshladi (talabalarni, o‘qituvchilarni, tadbirkorlarni, olimlarni). Bu rejada MOOC birinchi ochilganlardan bo‘la olmadi. Ular yaratilishidan ancha oldin masofaviy o‘qitish manbalari mavjud edi: taniqli olimlar ma’ruzalari matn variantida, audio va videomateriallarda mavjud edi. Bundan tashqari MOODLE platformasi ham ta’lim jarayonida katta o‘rin egallab kelmoqda. Hozirda MOODLE platformasi HEMIS platformasining eskirgan variantlaridan biridir. Moodle — kurslarni boshqarish tizimi “elektron ta’lim”, shuningdek, “ta’limni boshqarish tizimi” yoki „virtual ta’lim muhiti“sifatida mashhur. Ingliz tilidagi Modular Object-Oriented Dynamic Learning Environment (obyektga yo‘naltirilgan modulli dinamik o‘qitish muhiti) so‘zlarining qisqartmasi. Onlayn ta’lim uchun saytlar yaratish imkonini beruvchi ochiq (GNU GPL litsenziyasi asosida tarqatiladigan) veb-dastur hisoblanadi. Hozirda ta’lim jarayonini tashkil etishda, ayniqsa, masofaviy ta’limda keng foydalanilib kelinmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida mashg‘ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu texnologiyalar ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Birinchidan, raqamli texnologiyalar ta’limni interfaol qilishga yordam beradi. Masalan, elektron ta’lim platformalari orqali talabalar mustaqil bilim olishlari, o‘qituvchilar esa dars jarayonini samarali boshqarishlari mumkin. Shuningdek, videokonferensiya dasturlari va virtual darslar masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirib, ta’limga bo‘lgan kirish imkoniyatini oshiradi.

Ikkinchidan, sun’iy intellekt va adaptiv ta‘lim tizimlari talabalar uchun individual o‘quv yo‘nalishlarini ishlab chiqish, ularning bilim darajasini tahlil qilish va natijalarni shaxsiylashtirish imkonini yaratadi. Bu esa har bir talabaning qobiliyatidan kelib chiqib, unga mos o‘quv rejasi tuzishga yordam beradi.

Uchinchidan, raqamli laboratoriyalar va simulyatsiyalar orqali talabalar amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlashlari, real tajribaga yaqinlashgan holda bilim olishlari mumkin. Bu ayniqsa tibbiyot, muhandislik va tabiiy fanlar yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalar uchun juda muhim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Quliyeva Sh.H. "Аксиологический подход в профессионально-педагогической подготовке будущего учителя" Казанский педагогический журнал, №4. 2010. С. 48-52.
2. Кулиева Ш. Х. "Проблемы автоматизации швейного производства" Молодой учёный. Казан, 2016. № 7 - С. 97-99.
3. Кулиева Ш. Х., З.Д.Расулова "Инновационная деятельность педагога в образовании" Молодой учёный. Казан, 2016. № 8 - С. 978-980.
4. Кулиева Ш. Х. "Методологические основы системного подхода при подготовке учителей" The Way of Science. № 5,2017. - С.66-67
5. Quliyeva Sh.H."Ўқув жараёнига инновацион таълим технологияларнинг қўллаш мазмуни" Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. Участника XX международной научно-практические исследования. М.: 2019. – С.126-130.
6. K.D. Odilovna, S.D. Ahmadovna, R.E. Tohirovich, R.D. Dilmurodovna "Methodology of using autocad software in developing technical creativity of students" Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10 , 661-671
7. K.D. Odilovna, J.A. Razzoqovich "Talabalarning texnik konstruktorlik kompitentligini rivojlantirishda dasturiy ta'lim vositalardan foydalanish metodikasi" arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali 2 , 43-45
8. D.O. Kamolova, B.B. Hamidov "Texnologik talim fanini oqitishda pedagogik dasturiy vositalarning ahamiyati" Вестник магистратуры, 62-67

# TA'LIM – TARBIYA JARAYONINI INNOVATSION RAQAMLI TEXNALOGIYALAR YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

**Halimova Shoxina Eminjon qizi** b.f.f.d (PhD). **-** Buxoro davlat Universiteti, Biologiya kafedrasi dosenti.

**Annotatsiya.** So'ngi o'tgan yillar mobaynida ta'lim va tarbiya sohasini rivojlantirish bo'yicha dolzarb muammolarga duch kelmoqda.Yoshlarga innovatsion raqamli texnalogiyalar orqali dars jarayonlarini tashkil qilish juda samaralidir.Ammo, bu sohada yuz berayotgan jarayonlarda ayrim bir muammolarga ham yuzlanyapmiz.Ushbu maqolada hozirgi vaqtdning asosiy unsuri bo'lgan ta'lim va tarbiya jarayonida vujudga keladigan kamchiliklar va takliflar ta'lim –tarbiya jarayonini innovatsion raqamli texnalogiyalar yordamida takomillashtirishning dolzarb muammolari yuzasidan fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion raqamli texnologiyalar, Ta'lim va tarbiya jarayoni, Pedagogik metodlar, Ta'lim samaradorligi, Dars jarayonlarini tashkil etish, Yoshlar ta'limi, Kamchiliklar va takliflar.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsion raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarning bilim olish jarayoni yanada interaktiv va qiziqarli bo'lib, ularning ijodiy va analitik

fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Biroq, bu jarayonda texnik infratuzilma yetishmasligi, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarining pastligi va axborot xavfsizligi kabi muammolar ham yuzaga kelmoqda. Shu bois, ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash orqali mavjud muammolarni hal etish va ta'lim sifatini oshirish dolzarb vazifalardan biridir.

Ushbu tezisning maqsadi va vazifasi — ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion raqamli texnologiyalarni samarali joriy etishning dolzarb muammolarini aniqlash, ularni tahlil qilish va yechimlar ishlab chiqish orqali ta'lim sifatini oshirishga hissa qo'shishdan iborat. Shu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi.Birinchidan, ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llashning mavjud holatini o'rganish.Ikkinchidan, Innovatsion raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishda yuzaga keladigan asosiy muammolarni aniqlash.Uchinchidan, Raqamli texnologiyalarni o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishda qanday qo'llanilishini tahlil qilish.Vanihoyat so'ngi,ta'lim muassasalarida raqamli infratuzilmaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishdir.

Ta'lim va tarbiya jarayonini innovatsion raqamli texnalogiyalar yordamida takomillashtirishda bir nechta dolzarb muammolar mavjud. Birinchi muammo – texnologik infratuzilmaning etishmasligi, ayniqsa qishloq hududlarida. Yechim sifatida texnologik infratuzilmani mustahkamlash va internetga kirishni yaxshilash zarur. Ikkinchi muammo – o'qituvchilarning raqamli ko'nikmalarining yetarli bo'lmasligi. Buni hal qilish uchun o'qituvchilarni doimiy ravishda raqamli texnologiyalarni o'rganishga yo'naltirish kerak. Uchinchidan, resurslarning tengsizlik taqsimlanishi ta'limda tengsizlikni keltirib chiqaradi, shu bois raqamli resurslarga teng imkoniyat yaratish uchun davlat platformalarini tashkil etish muhim. To'rtinchi muammo – texnologiyalarga ortiqcha qaramlik, bu esa o'quvchilarni faqat raqamli resurslarga bog'liq qilib qo'yadi. Balansli yondashuvni joriy etish lozim. Va nihoyat, kadrlar tayyorlashda innovatsion yondashuvlarning yetishmasligi. O'qituvchilarni yangi texnologiyalarga o'rgatish uchun maxsus dasturlarni tashkil etish muhim. Bularning barchasi ta'limni samarali qilishga yordam beradi.

Ta'lim va tarbiya jarayonini innovatsion raqamli texnologiyalar yordamida takomillashtirishda bir nechta samarali metodlar mavjud. Ularning asosiylari quyidagilardir:

Birinchidan, moslashuvchan o'quv muhitlari yaratish raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'limni ta'minlaydi. O'quvchilarga o'z tempida o'qish imkoniyatini yaratish, interaktiv o'quv resurslari orqali o'quv jarayonini mustahkamlash bu metodning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ikkinchidan, virtual sinf va onlayn o'qitish innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali chekka hududlardagi o'quvchilarga ta'lim berishning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Zoom yoki Google Meet kabi platformalarda onlayn darslar o'tkazish orqali o'qituvchilar bilan bevosita aloqada bo'lish imkoniyati mavjud. Uchinchidan, gamifikatsiya va interaktiv o'quv jarayonlari o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun o'yin elementlarini

qo'shadi. Ballar, reytinglar va badge'lar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini baholashlari va o'zaro raqobatlashishlari mumkin. To'rtinchidan, ma'lumotlarni tahlil qilish va shaxsiylashtirilgan ta'lim metodida raqamli tizimlar yordamida o'quvchilarning faoliyatini kuzatib, shaxsiy o'quv rejalari tuziladi. Bu, o'quvchilarning zaif va kuchli tomonlarini aniqlashga yordam beradi va ularga mos o'quv materiallari taqdim etiladi. Bu metodlar birgalikda ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularni mustaqil o'rganishga undashda katta ahamiyatga ega.

Ushbu tezisning obyekti — ta'lim-tarbiya jarayonidir. Predmeti esa — bu jarayonda innovatsion raqamli texnologiyalarni joriy etishning dolzarb muammolari va ularni hal etish yo'llaridir. Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin. Biroq, bu texnologiyalarni joriy etishda texnik infratuzilmaning yetishmasligi, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarining pastligi va axborot xavfsizligi kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Shu sababli, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun kompleks yondashuv va samarali strategiyalar zarur.

**Xulosa va tavsiyalar**: Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion raqamli texnologiyalarni joriy etish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin. Biroq, bu texnologiyalarni joriy etishda texnik infratuzilmaning yetishmasligi, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarining pastligi va axborot xavfsizligi kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Shu sababli, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun kompleks yondashuv va samarali strategiyalar zarur.Biz soha yuzasidan bir necha tavsiyalar bera olamiz.Jumladan, texnik infratuzilmani rivojlantirish: Ta'lim muassasalarini zamonaviy kompyuterlar, interaktiv doskalar va tezkor internet bilan ta'minlash. va o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish: Pedagoglar uchun muntazam ravishda raqamli texnologiyalar bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish kabilari. Bu tavsiyalar orqali ta'lim jarayonini interaktiv ravishda tashkil qilish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdujalilova, Sh. G. Ta'lim sohasida innovatsion metodlarni foydalanish. CyberLeninka

2. Yoldoshmaxmudov, X. O. Ta'limda raqamli iqtisodiyot: istiqbol va rivojlanish istiqbollari. CyberLeninka.

3. Aliyeva, N. M., & Fayzullayev, J. . *Kelajakka qadam*. CyberLeninka.

4. Pardayeva, M. U. Q. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida innovatsiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish istiqbollari. CyberLeninka.

**Z.I.Nurilloyev -** Buxoro viloyat Romitan tumani 11-son IDIUM, oliy toifali kimyo fani o'qituvchisi

**Z.I.Nurilloyev -** t.f.f.d. (PhD), BDTU "kimyo muhandisligi" kafedrasi dotsenti, ……………………………………………………………………………………………

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА С ПОМОЩЬЮ ИННОВАЦИОННЫХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

**Ахмедова Хафиза Хакимовна** - Старший преподаватель лицея Бухарского инженерно-технологического института……………………………………… 28

**IMPROVING THE EDUCATIONAL PROCESS WITH THE HELP OF INNOVATIVE DIGITAL TECHNOLOGIES**

**Khujanova Mastura Ibodullayevna -** Teacher at Uzbekistan State University of World Languages…………………………………………………………………… 32

**OLIY TA'LIM TALABALARINING REFLEKSIV KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI VA USLUBIY-DIDAKTIK TA'MINOTI**

**Ubaydullayeva Sayyora Hasanovna -** Professional ta'limni rivojlantirish Instituti, doktorant………………………………………………………………………… 35

**USING PEDAGOGICAL AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS**

**Toshpulatova Fotima Ungarovna -** University of Tashkent Applied Science…………………………………………………………………………… 37

**MA'NAVIY TARBIYA JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ONLAYN VOSITALARDAN FOYDALANISHDA YAPONIYA TEXNOLOGIYASINING O'RNI**

**O.O.Jakbarov** – NamDU mustaqil tadqiqotchisi, Namangan davlat texnika universiteti professori……………………………………………………………… 40

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MAZMUNI**

**Sh.H. Quliyeva** – p.f.n., dotsent, Buxoro davlat pedagogika instituti……………… 43

**TA'LIM – TARBIYA JARAYONINI INNOVATSION RAQAMLI TEXNALOGIYALAR YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**Halimova Shoxina Eminjon qizi** b.f.f.d (PhD). **-** Buxoro davlat Universiteti, Biologiya kafedrasi dosenti…………………………………………………… 46

**ПРОГРЕССИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ПРОГРАММИРОВАНИЮ: ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОНЛАЙН-ПЛАТФОРМ**

**Атаева Г.И.** – доцент, Бухарский государственный университет …………. 49

**РЕКОНЦЕПТУАЛИЗАЦИЯ ПОНЯТИЯ «ЗНАНИЕ» В СВЕТЕ РАЗВИТИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА**

**О. А. Филиппов -** д.ф.ф.н (PhD); Навоийский филиал НУВО "PROFI UNIVERSITY"…………………………………………………………………… 51

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
AKADEMIK LITSEYI

# Sertifikat

*Halimova Shoxina*

*“Ta’lim jarayonida innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni joriy qilish – zamonaviy ta’limning bosh strategiyasi”*

*mavzusidagi*

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyaga faol ishtiroki uchun*

*Akademik litsey direktori:* *E.Z. Halimov*

**2025, 26.04**